

**MALAKA OSHIRIRISH JARAYONIDA TYUTORLAR KASBIY
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI****Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich**

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnologiyalari universiteti Yoshlar
bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat boshqarmasi boshlig'i*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tyutorlik va murabbiylik tushunchalarining O'zbekiston va xalqaro miqyosdagi ilmiy tadqiqotlardagi ta'riflari tahlil qilinadi. Maqolada A. Asqarov, A. Ibraymov, O. I. Vitvar, shuningdek, G. Lyuis va Makedoniyalik olimlar guruhi (Petrovska Sonja, Sivevska Despina, Popeska Biljana, Runcheva Jadranka) kabi olimlarning qarashlari ko'rib chiqiladi. Zamonaviy ta'limda murabbiylikning ahamiyati, uning yangi formatlari va samaradorlik tamoyillari yoritilgan.

Kalit so'zlar: tyutor, murabbiylik, mentorlik, ta'lim, masofaviy ta'lim, kasbiy rivojlanish, pedagogika

Annotation: This article analyzes the definitions of tutoring and mentoring concepts in scientific research both in Uzbekistan and internationally. It examines the views of scholars such as A. Askarov, A. Ibraymov, O. I. Vitvar, as well as G. Lewis and the Macedonian group of scholars (Petrovska Sonja, Sivevska Despina, Popeska Biljana, Runcheva Jadranka). The article highlights the importance of mentoring in modern education, its new formats, and principles of effectiveness.

Keywords: tutor, mentoring, mentorship, education, distance learning, professional development, pedagogy.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimida kadrlar salohiyatini oshirish, yosh mutaxassislarni kasbga yo'naltirish va ularning doimiy kasbiy rivojlanishini ta'minlash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, tyutorlik va murabbiylik kabi institutlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tushunchalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning mazmuni va ahamiyati turli ilmiy yondashuvlar

orqali tahlil qilinadi. Ushbu maqola tyutorlik va murabbiylikning nazariy asoslarini, amaliy jihatlarini va zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rnini o'rganishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili

Respublikamizda tyutor tushunchasi bo'yicha bir qator tajribalar mavjud bo'lib, ilmiy tadqiqot ishlarda quyidagicha ta'riflar berilgan. Jumladan, davlatimizda ushbu soha bo'yicha tadqiqot olib borilgan ilmiy tadqiqotchi olimlar sifatida A. Asqarov, A. Ibraymov ishlarida "Tyutor (o'qituvchi-konsultant) — masofadan malaka oshirish o'quv jarayonida tegishli o'quv moduli bo'yicha tinglovchilar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va boshqaruvchi, metodik yordam ko'rsatuvchi, o'qish va bilish nazoratini amalga oshiruvchi hisoblanishi" hamda tyutorlar masofaviy malaka oshirishda 4 ta o'qitish shakli bo'yicha faoliyat olib borilishi ta'kidlangan [1].

O. I. Vitvar o'z tadqiqotida murabbiylikni an'anaviy tushuncha sifatida ta'riflab, uni ustoz-pedagog tomonidan yosh o'qituvchiga tajriba va bilim uzatish jarayoni deb ta'kidlaydi [2]. Bu jarayonda asosiy e'tibor yosh mutaxassisning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va uning kasbiy faoliyatga moslashishiga qaratiladi. Biroq, zamonaviy jamiyatda ta'lim sohasidagi yangi talablar va texnologiyalar murabbiylik tushunchasini yangi mazmun va shakllar bilan boyitishni talab qilmoqda. O.V. Vitvarning tadqiqotiga ko'ra, murabbiylikning yangi formatlari zamonaviy ta'lim tizimida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yosh va tajribali pedagoglar uchun bu formatlar nafaqat kasbiy ko'nikmalarni oshirish, balki shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy obro'ni mustahkamlash imkoniyatlarini ham beradi. Murabbiylikning zamonaviy shakllari, masalan, tyutorlik, mentorlik, kouching va guruhli treninglar, pedagoglarning professional faoliyatini yanada samarali va qiziqarli qilishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'limda murabbiylik nafaqat tajriba uzatishni, balki innovatsion yondashuvlar, psixologik qo'llab-quvvatlash va kasbiy rivojlanishni rag'batlantirishni ham o'z ichiga olishi kerak [2].

"Murabbiylik" tushunchasining vatani deb yunon mifologiyasi hisoblanadi. Afsonaviy podshoh Odissey va Penelopaning o'g'li Telemakhning ustozlari va dono maslahatchisi Mentor bo'lgan, u hammaning ishonchini qozongan. Shuning uchun ham "mentor" yoki "murabbiy" tushunchasi paydo bo'lgan. Shundan beri murabbiylik dono, mehribon va o'rnak bo'la oladigan, o'rgatish va yo'l-yo'riq ko'rsatish qobiliyatiga ega inson bilan bog'liq tushuncha sifatida qaraladi.

J. J. Russo ustozning eng muhim mahoratlaridan biri – shogirdga hech narsa o'rgatmaslik ekanini ta'kidlagan. U tarbiyaning uchta asosiy omili mavjudligini ta'kidlagan: tabiat (tuyg'ular va qobiliyatlarni rivojlantiradi), odamlar (ulardan foydalanishni o'rgatadi) va jamiyat (inson tajribasini boyitadi). Bu omillar bolani tabiiy tarzda tarbiyalaydi va ustozning asosiy vazifasi – ular o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdir. Russoning fikricha, eng yaxshi ustoz – tarbiyalanuvchiga mustaqil ravishda hayotiy tajriba to'plash imkonini bergan pedagog bo'ladi [3].

“Murabbiylik” soʻzining etimologiyasiga murojaat qiladigan boʻlsak, V. Dal lugʻatida “murabbiylik” tushunchasi “Murabbiylik bu – unvoni, lavozim va faoliyat” deb izohlangan [4].

Rossiya pedagogik ensiklopediyasida “Murabbiylik – tajribali mutaxassis tomonidan yosh jamoalar, guruhlar va brigadalarga rahbarlik qilish” deb taʼriflangan [5]. Shuningdek, Murabbiylik - kattalardan kichiklarga tajriba va bilimlarni uzatish jarayoni; oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi oʻzaro munosabat shakli” taʼriflarini koʻrishimiz mumkin [6].

M. Yu. Oleskov, V. M. Uvarov taʼriflarida taʼkidlanishicha, tyutor — guruh rahbari lavozimiga mos keladigan, lekin oʻquvchilarning qobiliyatlarini test sinovlari orqali aniqlash asosida kasb tanlashga tayyorlash maqsadida har bir oʻquvchi uchun qulay faoliyat sharoitlarini yaratish funksiyalariga ega boʻlgan lavozim hisoblanadi [7].

Zamonaviy xorijiy tadqiqotchilar yosh mutaxassislarning “ustoz, murabbiylik” tizimiga katta ahamiyat beradilar. Bu borada G. Lyuisning qarashlari alohida eʼtiborga loyiq. U “murabbiylik” tushunchasini «alohida shaxsning boshqasiga yordam, yoʻl-yoʻriq, maslahat va qoʻllab-quvvatlash taklif etadigan munosabatlar va jarayonlar tizimi» sifatida koʻrib chiqadi. Lyuisga koʻra, ustoz – bu muayyan tajriba va bilim ega, yuqori darajadagi kommunikativ qobiliyatlarga ega shaxs boʻlib, oʻz shogirdiga kasbni oʻzlashtirish uchun zarur va yetarli tajribaga ega boʻlishga yordam berishga intiladi [8].

Makedoniyalik olimlar guruhi – Petrovska Sonja, Sivevska Despina, Popeska Biljana, Runcheva Jadranka [9] – ustozlik jarayonini tajribali mutaxassis va yangi shogird oʻrtasidagi sheriklik munosabatlari sifatida qarashadi. Ularga koʻra, ustoz nafaqat bilim va tajribani yetkazuvchi shaxs, balki shogirdga oʻz malakasini rivojlantirishda yoʻlboshchi hamdir. Ushbu jarayonda ustoz shogirdning kasbiy rivojlanishi uchun qoʻllab-quvvatlash, maslahat berish va qoʻllab-quvvatlash vazifalarini bajaradi [9].

Asosiy qism

1jadval

Olim (manba)	Taʼrif / Asosiy gʻoya
A. Asqarov, A. Ibraymov [1]	Tyutor (oʻqituvchi-konsultant) masofaviy malaka oshirish jarayonida tinglovchilar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, boshqaruvchi, metodik yordam koʻrsatuvchi, oʻqish va bilish nazoratini amalga oshiruvchi hisoblanadi. Tyutorlar masofaviy malaka oshirishda 4 ta oʻqitish shakli boʻyicha faoliyat olib boradilar.
O. I. Vitvar [2]	Murabbiylik anʼanaviy tushuncha sifatida ustoz-pedagog tomonidan yosh oʻqituvchiga tajriba va bilim uzatish jarayonidir.

	Zamonaviy jamiyatda esa murabbiylik tushunchasi yangi mazmun va shakllar bilan boyitilmoqda (tyutorlik, mentorlik, kouching, guruhli treninglar).
J. J. Russo [3]	Eng muhim ustozlik mahoratlaridan biri – shogirdga hech narsa o‘rgatmaslik. Tarbiyaning uchta asosiy omili: tabiat, odamlar va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash ustozning asosiy vazifasidir. Eng yaxshi ustoz tarbiyalanuvchiga mustaqil hayotiy tajriba to‘plash imkonini beradi.
V. Dal lug‘ati [4]	“ Murabbiylik ” tushunchasi “unvoni, lavozim va faoliyat” deb izohlangan.
Rossiya pedagogik ensiklopediyasi [5], [6]	Murabbiylik – tajribali mutaxassis tomonidan yosh jamoalar, guruhlar va brigadalarga rahbarlik qilish. Bu kattalardan kichiklarga tajriba va bilimlarni uzatish jarayoni, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabat shaklidir.
M. Yu. Oleskov, V. M. Uvarov [7]	Tyutor — guruh rahbari lavozimiga mos keladi, lekin o‘quvchilarning qobiliyatlarini test sinovlari orqali aniqlash asosida kasb tanlashga tayyorlash maqsadida har bir o‘quvchi uchun qulay faoliyat sharoitlarini yaratish funksiyalariga ega.
G. Lyuis [8]	“ Murabbiylik ” — alohida shaxsning boshqasiga yordam, yo‘l-yo‘riq, maslahat va qo‘llab-quvvatlash taklif etadigan munosabatlar va jarayonlar tizimi. Ustoz tajribali, yuqori darajadagi kommunikativ qobiliyatlarga ega bo‘lib, shogirdiga kasbni o‘zlashtirishda yordam berishga intiladi.
Petrovska Sonja, Sivevska Despina, Popeska Biljana, Runcheva Jadranka[9]	Ustozlik jarayoni tajribali mutaxassis va yangi shogird o‘rtasidagi sheriklik munosabatlari. Ustoz bilim va tajriba uzatuvchi, shuningdek, shogirdning malakasini rivojlantirishda yo‘lboshchidir.
Petrovska Sonja [9]	Ustozlik nafaqat yangi o‘qituvchining malakasini oshirishga xizmat qiladi, balki ustozning o‘ziga ham kasbiy o‘sish imkonini beradi.
Sivevska Despina [9]	Ustozlik jarayonida quyidagi tamoyillarga amal qilish kerak: Maxfiylik, Mavjudlik, Ochiqlik, Optimizm, Samaradorlik, Hurmat.
Popeska Biljana [9]	Ustozlik jarayonida rejallashtirish va tizimli yondashuv muhim. Ustozlik quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi

	lozim: Yaxlit rejalashtirish, Uzlusizlik, Nazorat, Refleksiya (fikir-mulohaza almashish).
Runcheva Jadranka[9]	Ustozlik jarayoni faqatgina yangi tayinlangan o'qituvchilarga emas, balki ustozning o'ziga ham foydali. Ustozga pedagogik tajribani tahlil qilish, kasbiy sohadagi turli vaziyatlarni o'rganish, yangi o'qitish uslublarini sinab ko'rish imkonini beradi.
Esaulova I. A. [10]	Murabbiylik dasturlarini yaratish murakkab, ammo zaruriy qaror bo'lib, zamonaviy tashkilot uchun muhim ahamiyatga ega. Samarali kadrlar rivojlanish tizimi integratsiyalashgan va individual yondashuvga asoslangan kadrlar salohiyatini shakllantirish vositalariga ehtiyoj sezadi.

Muhokama

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, *tyutorlik* va *murabbiylik* tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ularning funksional jihatlari va qo'llanish sohalarida farqlar mavjud. O'zbekistonlik olimlar A. Asqarov va A. Ibraymovlarning ta'rifida tyutor masofaviy ta'limda o'quv jarayonini muvofiqlashtiruvchi, nazorat qiluvchi va metodik yordam beruvchi shaxs sifatida ko'rib chiqilsa [1], xorijiy olimlarning qarashlarida murabbiylik kengroq ma'noda, shogirdning har tomonlama kasbiy va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi tizim sifatida talqin qilinadi [8], [9].

O. I. Vitvarning tadqiqoti murabbiylikning an'anaviy yondashuvdan zamonaviy, ko'p qirrali formatlarga o'tishini ta'kidlaydi [2]. Bu o'tish, ayniqsa, J. J. Russoning "hech narsa o'rgatmaslik" tamoyili bilan uyg'unlashadi, bu yerda ustoz shogirdga mustaqil tajriba orttirish imkoniyatini yaratadi [3]. Bu zamonaviy murabbiylikning mohiyatini tashkil etadi, ya'ni bilimni shunchaki uzatish emas, balki o'quvchining o'z-o'zini rivojlantirishini rag'batlantirishdir.

G. Lyuisning murabbiylikni "munosabatlar va jarayonlar tizimi" sifatida ta'riflashi, uning nafaqat yakka shaxsga yo'naltirilganligini, balki tizimli yondashuvga asoslanganligini ko'rsatadi [8]. Makedoniyalik olimlar guruhi ham ustozlikni sheriklik munosabatlari sifatida qaraydi, bu jarayonda maxfiylik, mavjudlik, ochiqlik, optimizm, samaradorlik va hurmat kabi tamoyillarga amal qilish muhimdir [9]. Bu tamoyillar, shuningdek, rejalashtirish, uzluksizlik, nazorat va refleksiya bilan birgalikda murabbiylikning samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, zamonaviy sharoitda murabbiylik nafaqat yosh mutaxassislarni kasbga moslashtirish, balki tajribali pedagoglarning ham o'z professional kompetensiyalarini oshirishlariga yordam beradigan muhim vositadir. Esaulova I. A. ta'kidlaganidek, samarali kadrlar rivojlanish tizimi individual yondashuvga asoslangan murabbiylik dasturlarini talab qiladi [10].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tyutorlik va murabbiylik tushunchalari ta'lim tizimida shaxslarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tyutorlik, asosan, masofaviy ta'lim sharoitida o'quv jarayonini tashkil etish va nazorat qilishga qaratilgan bo'lsa, murabbiylik an'anaviy ustoz-shogird munosabatlaridan kelib chiqqan holda, zamonaviy talablarga muvofiq, mentorlik, kouching va guruhli treninglar kabi yangi shakllar bilan boyitilgan. Zamonaviy murabbiylik faqat bilim uzatish bilan cheklanmaydi, balki shogirdning mustaqil rivojlanishini rag'batlantirish, psixologik qo'llab-quvvatlash va innovatsion yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Makedoniyalik olimlarning tadqiqotlari murabbiylik jarayonining samaradorligini ta'minlovchi asosiy tamoyillarni (maxfiylik, mavjudlik, ochiqlik, optimizm, samaradorlik va hurmat) va tizimli yondashuvni (rejalashtirish, uzluksizlik, nazorat va refleksiya) yoritib beradi. Shu bois, mamlakatimizda va xalqaro miqyosda kadrlar salohiyatini oshirish uchun murabbiylik dasturlarini yaratish va ularni ta'lim tizimiga integratsiya qilish zarur hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Asqarov A.D. Masofaviy o'qitish ta'lim shaklining rivojlanish bosqichlari va modellari // Zamonaviy ta'lim 2015, 10. 59–65 b, 29b.
2. Vitvar O. I. Sovremennoe soderjanie i sposobi razvitiya pedagogicheskogo nastavnichestva v sisteme obrazovaniya Rossiyskoy Federatsii. // Pedagogika. Voprosy teorii i praktiki. Tambov: Gramota, 2019. Tom 4. Vipusk 2. C. 43–51.
3. Dvijenie Prosveщeniya vo Fransii v XVIII veke. [Elektronniy resurs]. URL: <http://www.zavtrasessiya.com/index.pl?act=PRODUCT&id=1633> (data obraщeniya: 21.02.2021).
4. Slovari i ensiklopedii [Elektronniy resurs] URL: <https://gufo.me> (data obraщeniya: 21.02.2021).
5. Rossiyskaya pedagogicheskaya ensiklopediya. – M.: Nauka, 1993. – S.582.
6. Slovari i ensiklopedii [Elektronniy resurs] URL: <https://gufo.me> (data obraщeniya: 21.02.2021).
7. Sovremenniy obrazovatelniy process: osnovnie ponyatiya i termini. / Avt. — sost. M. Yu. Oleskov, V. M. Uvarov. — M.: Kompaniya Sputnik + M.Yu. Oleskov, V. M. Uvarov.— 2006.— 191 s.
8. Lyuis G. Menedjer – nastavnik. Strategiya raskritiya talanta i rasprostraneniya znaniy. M., 2002. 192 s.
9. Petrovska, Sonja; Sivevska, Despina; Popeska, Biljana; Runcheva, Jadranka. "Mentoring in Teaching Profession." International Journal of Cognitive Research in Science, Engineering and Education, vol. 6, no. 2, 2018, pp. 47-56.
10. Esaulova I. A. Novie modeli nastavnichestva v praktike obucheniya i razvitiya personala // «Strategii biznesa». № 6. 2017.